Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 22-oktyabr, № 222 (9393) Payşanba

Saytimizga ötish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISTIQBOLLI LOYIHALAR QAŞQADARYONI ZAMONAVIY SANOAT VA AGROTEXNOLOGIYALAR MARKAZIGA AYLANTIRMOQDA

Prezident Şavkat Mirziyoyev 21-oktyabr kuni Qaşqadaryo viloyatiga keldi. Taşrif “Qaşqadaryo” erkin iqtisodiy zonasida joylaşgan “Sulton Tex Group” töqimaçilik klasterining yangi fabrikasi faoliyati bilan tanişişdan boşlandi.



Qaşqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiriş böyiça joriy yil 13-martda qabul qilingan qaror doirasida klaster tomonidan mato işlab çiqariş va böyaş fabrikasi taşkil etildi. Qiymati 54 million dollar bölgan loyiha natijasida yiliga 20 ming tonna mato işlab çiqariş va böyaş quvvatiga ega liniyalar işga tuşirildi. Fabrikada 840 ta iş örni yaratildi.

Korxonada suv va energiya sarfini kamaytirişga alohida e’tibor qaratilgan. Qiymati 3 million dollar bölgan yopiq suv aylanişi tizimi işlab çiqarişda foydalanilgan suvning 95 foizdan ortiğini tozalab, qayta işlatiş imkonini beradi. Buning hisobiga yiliga 1,1 million kubometr suv tejaladi.

Fabrikani uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlaş uçun gaz generatori örnatilgan. Bino tomi va devorlariga umumiy quvvati 3,5 megavatt bölgan quyoş panellari joylaştirilgan. Uşbu yeçimlar elektr energiyasi, issiq suv va buğ ta’minotidagi xarajatlarni kamaytirib, mahsulot tannarxini pasaytirişga xizmat qiladi.

Kelgusida “Sulton Tex Group” klasteri mazkur erkin iqtisodiy zonada 70 million dollarlik loyihani amalga oşirib, 3 ming 570 ta iş örni yaratişi rejalaştirilgan. Viloyatning boşqa tumanlaridagi qiymati jami 17 million dollar bölgan loyihalar esa yana 1 ming 220 kişini iş bilan ta’minlaşi közda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbari fabrikadagi işlab çiqariş jarayoni va mahsulotlar körgazmasi bilan tanişdi. Bu yerda joriy qilingan resurs-tejamkor texnologiyalar boşqa töqimaçilik korxonalari uçun namuna bölişi kerakligini ta’kidladi.

Korxonada mehnat qilayotgan Dilorom Xoliyorova Prezidentimiz bilan suhbatda iş örni va yaratilgan şaroitlardan mamnun ekanini bildirib, körsatilayotgan qöllab-quvvatlov uçun minnatdorlik izhor etdi.

– Inson mehnat qilsa, albatta, natijasi ham boşqaça böladi. Mana şu yangi avlod tadbirkorlarimiz bilan hozir mutlaqo boşqa darajaga çiqyapmiz, ular nafaqat qöşimça qiymat zanjiri yaratyapti, balki “yaşil” texnologiyalar bilan ekologiyaga ğamxörligini ham namoyon etmoqda, – dedi Prezidentimiz.

Söng Prezident Şavkat Mirziyoyev Qarşi şahridagi “FM World” korxonasi faoliyati bilan tanişdi.

Majmua Xitoyning 500 ta yirik xususiy korxonasi qatoriga kiritilgan “Jiangsu World Group” korporatsiyasi tarkibiga kiradi.

Qiymati 20 million dollar bölgan loyiha töliq xorijiy investitsiya hisobidan moliyalaştirilib, 5 gektar maydonda joylaşgan. 12 ming kvadrat metr maydonda işlab çiqariş binolari barpo etilgan. Bu yerda 200 ta iş örni yaratilib, işlab çiqarişning ayrim jarayonlari avtomatlaştirilgan.

Ayni paytda korxonada “Nasaf” brendi ostida beş xil rusumdagi traktorlar, paxta teriş maşinalari va boşqa qişloq xöjaligi texnikalari yiğilmoqda. Traktorlar GPS, avtopilot, öğitlaşni boşqariş va masofadan nazorat qiliş tizimlari bilan jihozlangan. Bu dala işlarini aniq bajariş, yonilği va boşqa resurslar sarfini kamaytirişga xizmat qiladi.

Korxonada dala şaroitida texnikalarga xizmat körsatiş, nosozliklarni oldindan aniqlaş va ulardan xavfsiz foydalaniş böyiça muntazam öquv maşğulotlari ham ötkazilmoqda.

Traktorlarni yiğişda mahalliylaştiriş darajasi 30 foizni taşkil etadi. Korxonaning özida 138 turdagi detal va butlovçi qism işlab çiqarilmoqda. Butlovçi qismlar işlab çiqarişni kengaytiriş va korxonalar bilan kooperatsiyani kuçaytiriş orqali mahalliylaştiriş darajasini bosqiçma-bosqiç oşiriş muhimligi qayd etildi.

Yillik eksport hajmini 50 million dollarga yetkaziş, mahsulotlarning 30 foizini qöşni davlatlarga yetkazib beriş rejalaştirilgan.

Prezidentimiz işlab çiqariş jarayoni va tayyor texnikalar bilan tanişdi.

(Davomi 2-betda).

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

ÖZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli yurtdoşlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni, xorijdagi vatandoşlarimiz va özbek tilining barça döstlarini 21-oktyabr – Özbek tili bayrami kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri bölgan ona tilimiz olis ajdodlarimizdan bizga buyuk meros bölib kelayotgan öz tilimizdir.

Biz “Öz” degan ezgu ğoyani tilga munosabatimizda ham ana şunday tuşunamiz va joriy etamiz. Ayni şu ğoya özak tomirlarimizdan oziqlanib kelgan ona tilimizga dunyo bilan erkin muloqot qiliş, zamonaviy bilimlarni özlaştiriş, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirişda yangi kuç-quvvat beradi deb işonamiz.

Albatta, inson aynan til orqali özini anglaydi, oilasi va el-yurtiga mehr tuyğusini ifoda etadi. Xalqning xotirasi, bilim va tajribasi, orzu-umidlari ham tilda mujassam böladi. Davlat tilining qadri va ahamiyati haqida gapirganda, biz, avvalo, ana şu jihatlarni yetakçi öringa qöyamiz.

Bizning buyuk ajdodlarimiz aynan ona tilimiz boyliklaridan ilhom olib, ilm va adabiyot olamida durdona asarlar yaratganlar, inson qalbi va jamiyat hayoti haqida teran fikrlar yozib qoldirganlar. Ana şu an’analarni davom ettirgan holda öz tilimizning imkoniyatlarini yangi ilm, texnologiya va ijod namunalari bilan boyitiş – bizning mas’uliyatli vazifamiz.

Özbekiston – turli millat va elat vakillari yagona oila bölib, birgalikda yangi hayot va kelajak barpo etayotgan umumiy Vatanimiz.

Öz tilimiz davlat tili sifatida fuqarolarimizning muloqot tiliga aylanib, ularning jamiyat hayotida faol iştirok etişlariga xizmat qilayotgani barçamizni albatta quvontiradi.

Ayni paytda har bir insonning ona tili va madaniy qadriyatlariga hurmat va e’tibor – jamiyatdagi döstlik hamda hamjihatlikning muhim asosi ekanini ham biz yaxşi tuşunamiz. Şu bois yurtimizda qoraqalpoq tili va boşqa tillarning rivojini qöllab-quvvatlaş, özbek tilini örganiş uçun qulay şaroitlar yaratiş borasidagi işlar özaro uyğun va bir-birini töldiradigan holda olib borilmoqda.

Davlat tilini biliş, heç şubhasiz, insonga yangi bilim va imkoniyatlar eşigini oçadi, ularda umumiy hayotimiz, istiqbolimiz uçun daxldorlik hissini kuçaytiradi. Bu borada özbek tilini endigina örgana boşlagan insonga samimiy munosabatda böliş, uning intilişini qöllab-quvvatlaş, ayniqsa, muhimdir.

Biz yoşlarimizning özbek tilida teran fikrlaşi, çet tillarni puxta egallaşi va jahondagi ijobiy özgarişlarga hamnafas bölişi uçun yanada qulay şaroitlar yaratişimiz zarur. Bu borada tarjima san’ati ham alohida örin tutadi. Biz tarjima orqali insoniyatning tafakkur xazinasidan eng yaxşi asarlarni öz tilimizga olib kiramiz, davlat tilidagi ğoya va asarlarni esa boşqa xalqlarga yetkazamiz.

Ayniqsa, Oksford universitetidagi “Özbekşunoslik dasturi” kabi hamkorlik yönalişlari tarjima asosidagi ana şunday muloqotning namunasi bölib xizmat qilişi mumkin. Çet ellardagi özbek tili öqituvçilari, tadqiqotçi va talabalarning qiziqişini rağbatlantiriş, ularni sifatli adabiyotlar, ta’lim resurslari bilan ta’minlaşga ham alohida e’tibor qaratişimiz lozim.

Muhtaram vatandoşlar!

Tilning hayotimizdagi örni, avvalo, undan qançalik samarali foydalaniş darajasi bilan boğliq. Bola öz fikrini ravon bayon eta olsa, talaba murakkab mavzuni tuşungan holda örgansa, fuqaro rasmiy hujjat mazmunini osongina anglasa – til taraqqiyotining natijasi aynan şunda körinadi.

Şuning uçun ta’lim sohasida asosiy e’tiborni öquvçining öqiş, tuşuniş, gapiriş va savodli yoziş könikmalariga qaratişimiz kerak. Özbek tilini ona tili sifatida örganayotgan bola bilan uni davlat tili sifatida egallayotgan öquvçining ehtiyojlari örtasida albatta farq bor. Darslik va öqitiş usullarini yangilaşda bu albatta hisobga olinişi lozim.

Hayot tajribasi şuni körsatmoqdaki, muallimlarning malakasi, bolalar adabiyoti, kutubxonalar va zamonaviy ta’lim vositalari tilga bölgan mehrni mustahkamlaydi. Oiladagi samimiy suhbat, birgalikda kitob öqiş va bolaning savollariga e’tibor ham şu jarayonning muhim qismi. Şu ma’noda mamlakatimizda kitobxonlikni umummilliy harakatga aylantirib, bu jarayonga katta e’tibor berayotganimiz zamirida ham tilimiz rivoji haqidagi e’tibor mavjud, desak, töğri böladi.

Davlat idoralari bu borada namuna bölişi şart. Qonun, qaror, yöriqnoma va murojaatlarga javoblar ravon, aniq va tuşunarli tilda yozilişi kerak. Fuqaro özining haq-huquqi yoki majburiyatini anglaş uçun ortiqça qiyinçilikka duç kelmasligi lozim. Davlat tiliga hurmat davlat xizmatining sifatida ham körinişi kerak.

Oldimizdagi muhim vazifalardan yana biri – özbek tilida zamonaviy ilmiy manbalardan foydalaniş va yangi tadqiqot natijalarini bayon etiş imkoniyatlarini kengaytirişdan iborat. Tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot va boşqa sohalarda işonçli adabiyotlar, sifatli tarjima matnlari hamda elektron resurslarga ehtiyoj katta.

Bu borada hurmatli olimlarimiz, tilşunos, tarjimon va mutaxassislarning hamkorligi zarur. Atamalarni tanlaşda ma’no aniqligi, ularning tuşunarli va xalqaro ilmiy muloqot bilan boğliq bölişiga e’tibor qaratişimiz kerak. Luğatlarimiz ham tilning jonli taraqqiyoti va yangi bilimlarni izçil aks ettirib borişi lozim.

Yana bir dolzarb vazifa – özbek tilidan bugungi raqamli muhitda ham tölaqonli foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirişimiz zarur. Buning uçun sifatli matnlar va nutq namunalarini jamlaş, elektron luğatlar, tarjima va tahrir vositalarini rivojlantiriş alohida ahamiyatga ega.

Nutqni matnga, matnni ovozga aylantiradigan texnologiyalar ta’limda, mehnat jarayonida va kundalik hayotda odamlarga qulaylik yaratişi kerak. Bunday resurslarni tayyorlaşda mualliflik huquqi va şaxsiy ma’lumotlar himoyasiga oid qoidalarga amal qilinişi lozim.

Biz barpo etayotgan inklyuziv jamiyat talablaridan kelib çiqqan holda ulardan nogironligi bölgan insonlar ham foydalana olişiga alohida e’tibor qaratişimiz zarur.

Sun’iy intellekt vositalarining davlat tilidagi sifati ularning insonga qançalik aniq va foydali yordam berayotgani bilan baholanadi.

Yozuv va imlo masalalarida ham asosiy mezon odamlarning öqişi, yozişi va axborotdan foydalanişi uçun qulaylik bölişi kerak. Bu boradagi yeçimlar ilmiy asos, jamoatçilik bilan muloqot va amaliy tayyorgarlikka tayanişi lozim. Ta’lim, naşriyotlar va raqamli tizimlarning özaro muvofiqligi, turli avlodlarning ehtiyojlari puxta hisobga olinişi zarur.

Fursatdan foydalanib, öz tilimiz ravnaqi yölida fidokorona mehnat qilayotgan olim va tadqiqotçilarga, muallim va tarjimonlarga, adib va jurnalistlarga, noşirlar va axborot texnologiyalari mutaxassislariga samimiy minnatdorlik bildiraman. Özbek tilini mehr bilan örganayotgan yurtdoşlarimiz va xorijlik döstlarimizga ham alohida taşakkur aytaman.

Ona tilimizni sevib, ardoqlab, uning şuhratini oşirişga, dunyo bilan muloqotini kengaytirişga har birimiz munosib hissa qöşaylik!

Siz, aziz vatandoşlarimni yana bir bor tabriklab, sizlarga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinçlik va farovonlik, yutuq va omadlar tilayman.

Özbek tili bayrami barçamizga muborak bölsin!

Şavkat MIRZIYOYEV,
Özbekiston Respublikasi Prezidenti

“BOLALAR FAROVONLIGIGA INVESTITSIYA: KELAJAK AVLODLARNING BARQAROR VA ADOLATLI TARAQQIYOTI SARI YÖL” BUTUNJAHON SAMMITI IŞTIROKÇILARIGA

Hurmatli sammit iştirokçilari!

Qadrli mehmonlar, xonimlar va janoblar!

Sizlarni boqiy şahar – Samarqandda “Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlarning barqaror va adolatli taraqqiyoti sari yöl” butunjahon sammitining oçilişi bilan çin qalbimdan muborakbod etaman.

Uşbu anjumanni taşkil etişda hamkorlik qilayotgan Birlaşgan Millatlar Taşkiloti va uning Bolalar jamğarmasi – YUNISEF, Jahon banki, Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti, Xalqaro ijtimoiy ta’minot uyuşmasi hamda barça hamkorlarimizga minnatdorlik bildiraman.

Bolalar farovonligi haqida gapirganda, avvalo, ularning bugungi hayotini nazarda tutamiz. Har bir bola hozirning özida mehr, xavfsizlik, sifatli ta’lim va zarur tibbiy yordamga haqli. Uning qadri kelajakda qanday kasb egasi bölişi yoki qança daromad keltirişi bilan ölçanmaydi.

Bolaning soğlomösişi va qobiliyatini röyobga çiqariş uçun yaratilgan şaroit mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotiga ham mustahkam asos böladi. Şu bois bolalikka yönaltiriladigan mablağlar davlat siyosatida izçil va barqaror örin egallaşi zarur.

Özbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qiliş, maktabgaça ta’lim imkoniyatlarini kengaytiriş, ijtimoiy xizmatlarni oilalarga yaqinlaştiriş böyiça islohotlarni davom ettirmoqdamiz. Nogironligi bölgan bolalarning ta’limda iştirok etişi, bolalarni zöravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilişga alohida e’tibor qaratmoqdamiz.

Keng qamrovli islohotlarimiz natijasida tuğuruq jarayonida onalar ölimi, bolalarningösişdan ortda qolişi ikki barobar qisqardi, maktabgaça ta’lim qamrovi 27,7 foizdan 78 foizga oşirildi, olti yoşli bolalarning qariyb 100 foizi maktabga tayyorlovga jalb etildi, oliy ta’lim bilan qamrov 5 barobar – 9 foizdan 45 foizga oşdi.

Mamlakatimizda yaratilgan oila va bola ehtiyojini barvaqt aniqlab, yordam beradigan ijtimoiy himoya tizimi orqali sönggi beş yilda bolalar kambağalligi qariyb 4 baravarga qisqardi.

Şu bilan birga keyingi ikki yildagi islohotlar orqali inklyuziv maktablar soni 5 barobar ortib, nogironligi bölgan bolalarning 85 foizdan ortiği ta’lim xizmatlariga jalb etildi.

Bu işlarning haqiqiy natijasi har bir oila hayotida sezilişi kerak. Çekka hududdagi bolaga şifokor öz vaqtida yetib boryaptimi? Maktabda unga örganiş uçun zarur şaroit bormi? Zöravonlikka duç kelganida u işonç bilan yordam söray oladimi? Biz öz faoliyatimizni ana şu savollarga beriladigan amaliy javoblar bilan baholaşimiz lozim.

Biz uçun oilani qöllab-quvvatlaş – bolaning xavfsizligi va eng ustun manfaatlarini ta’minlaş demak. Bu ota-onaga vaqtida kömak berişni, bolaning oiladan ajralib qolişining oldini olişni, zarur hollarda esa unga xavfsiz va barqaror oilaviy parvariş topişni talab qiladi.

Şu bois har bir bola mehr va ğamxörlikka asoslangan oila muhitida voyaga yetişi biz uçun ustuvor ahamiyatga ega. Bugungi kunda yetim va ota-ona qaramoğidan mahrum bolalarning 100 foizi oila bağrida tarbiyalanmoqda.

(Davomi 2-betda).

Şukuh

ÖZAK TOMIRLARIMIZDAN OZIQLANGAN BUYUK MEROS

Mamlakatimizda 21-oktyabr – Özbek tili bayrami kuni keng nişonlandi

Asosiy bayram tadbiri poytaxtimizdagi “Özbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida bölib ötdi.

Iştirokçilar erta tongdanoq poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida bölib, öz ijodi va faoliyati orqali ona tilimizning jozibasini, luğat boyligi hamda imkoniyatlarini butun dunyoga körsata bilgan buyuk şoir va mutafakkir Alişer Navoiy haykali poyiga gullar qöydi.

Muhtaşam saroy oldida tadbir iştirokçilari karnay-surnay sadolari bilan kutib olindi.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning Özbek tili bayrami kuni munosabati bilan xalqimizga yöllagan bayram tabrigini Prezident maslahatçisi Xayriddin Sultonov öqib eşittirdi.

Ta’kidlanganidek, jahondagi eng qadimiy va boy tillardan biri bölgan ona tilimiz olis ajdodlarimizdan bizga buyuk meros bölib kelayotgan öz tilimizdir. Biz “Öz” degan ezgu ğoyani tilga munosabatimizda ham ana şunday tuşunamiz va joriy etamiz. Ayni şu ğoya özak tomirlarimizdan oziqlanib kelgan ona tilimizga dunyo bilan erkin muloqot qiliş, zamonaviy bilimlarni özlaştiriş, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirişda yangi kuç-quvvat beradi deb işonamiz.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 22-oktyabr

“BOLALAR FAROVONLIGIGA INVESTITSIYA: KELAJAK AVLODLARNING BARQAROR VA ADOLATLI TARAQQIYOTI SARI YÖL” BUTUNJAHON SAMMITI IŞTIROKÇILARIGA

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Özimizda “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan hikmat bor. Unda bolaga befarq bölmaslik, oilani yolğiz qoldirmaslik ma’nosi mujassam. Bugun bu an’ana davlatning aniq kafolatlari, malakali mutaxassislar xizmati va har bir bolaning şaxsiy daxlsizligiga hurmat bilan mustahkamlanişi kerak.

Milliy tajribamizdagi mehr va hamjihatlikni dunyoning ilğor bilimlari bilan boyitişga intilamiz. “Öz” ğoyamizni biz şu ma’noda tuşunamiz: öz qadrini anglaş, özganing qadrini hurmat qiliş va kelajak uçun mas’uliyat oliş.

Bola öz tili va madaniy ildizlaridan kuç olib, boşqa xalqlarga hurmat bilan qarab ulğayişi kerak. Uning savol beriş, mustaqil fikrlaş, ijod qiliş va dunyo bilimini egallaş imkoniyatini kengaytiriş – bu ğoyaning hayotdagi ifodasi. Özbekistondagi har bir bola millati, tili, e’tiqodi, salomatligi yoki oilasining daromadidan qat’i nazar, şunday imkoniyatga ega bölişi lozim.

Hurmatli anjuman iştirokçilari!

Qurolli mojarolar, majburiy köçiş, iqlim özgarişi va iqtisodiy qiyinçiliklar bolalar hayotiga oğir ta’sir körsatmoqda. Har bir davlat öz mas’uliyatini bajarişi, xalqaro hamkorlik esa milliy imkoniyatlarni töldiriş zarur.

Samarqanddagi muloqotimizni quyidagi amaliy yönalişlarga qaratişni taklif etaman.

Avvalo, bola hayotining ilk davridan uzluksiz kömakni kuçaytirişimiz kerak. Ona salomatligi, töğri ovqatlaniş, erta rivojlaniş va maktabgaça ta’limni özaro boğlaş muhim. Ehtiyoj qança erta aniqlansa, oilaga yordam şunça öz vaqtida yetib boradi.

Bolalarning oğir kasalliklarini erta aniqlaş va davolaşda hamkorlikni kengaytirişni taklif qilamiz. Xususan, bolalar onkologiyasi böyiça mutaxassislar tajriba almaşişi, taşxis imkoniyatlari va sifatli dorilardan foydalanişni yaxşilaş zarur. Bolaning yaşaş joyi uning yordam oliş imkoniyatini çeklab qöymasligi kerak.

Şu maqsadda Birinçi xonimlarning bolalar onkologiyasi böyiça xalqaro hamkorlik taşabbusini qöllab-quvvatlaymiz. Uning jamoatçilik va xayriya salohiyati tibbiy ekspertlar tavsiyalari, ehtiyojga asoslangan yordam hamda mablağlarning oçiq sarfi bilan boğlanişi maqsadga muvofiq. Bu hamkorlik milliy soğliqni saqlaş tizimlari imkoniyatini mustahkamlaşga xizmat qilişi lozim.

Yana bir ustuvor vazifa – bolalar uçun xavfsiz ta’lim va raqamli muhit yaratiş. Kiberbulling, ekspluatatsiya va şaxsiy ma’lumotlardan suiiste’mol qilişga qarşi hamkorlikni kuçaytirişimiz zarur.

Ayni paytda bolalarning bilim olişi, ijod qilişi va xavfsiz muloqot imkoniyatlarini kengaytirişimiz kerak. Buning uçun bolalarga ham, ota-onalar va pedagoglarga ham raqamli savodxonlik böyiça amaliy kömak lozim.

Bolalar iştirokini qarorlarimizning ajralmas qismiga aylantirişni ham taklif etamiz. Ular uçun yaratilayotgan xizmatlar haqida özlarining fikrini eşitişimiz kerak. Bunday iştirok bolaning yoşiga mos, ixtiyoriy va xavfsiz taşkil etilişi lozim.

Uşbu yönalişlarda hamkorlikni davom ettiriş uçun Samarqand platformasini amaliy muloqot mexanizmi sifatida şakllantirişdan manfaatdormiz. U mavjud taşkilotlar bilan hamkorlikda samarali tajribalarni almaşiş, ixtiyoriy qöşma loyihalarni tayyorlaş va natijalarni muhokama qilişga xizmat qilişi mumkin.

Sammitning yakuniy deklaratsiyasi umumiy intilişlarimizni ifodalaydi deb umid qilaman. Uni amaliy işlarga aylantiriş uçun manfaatdor hamkorlar bilan mas’ullar, resurslar va muddatlar belgilangan rejalarni işlab çiqiş muhim. Kelişilgan körsatkiçlar asosida natijalarni oçiq muhokama qiliş özaro işonçni mustahkamlaydi.

Bunda e’tiborimiz, ayniqsa, yordamdan çetda qolayotgan bolalarga qaratilişi zarur. Farovonlik yölidagi taraqqiyot har bir bolaning hayotida sezilganida umumiy yutuğimizga aylanadi.

Qadrli döstlar!

Bola qaysi mamlakatda va qanday oilada tuğilişini tanlamaydi. Ammo uning xavfsiz ösişi, öz qobiliyatini kaşf etişi va kelajagini qurişi uçun qanday şaroit yaratiş bizning qarorlarimizga boğliq.

Samarqandda boşlangan hamkorligimiz bolalarning bugungi hayotini yaxşilaydigan aniq işlar bilan davom etişini tilayman.

Barçangizga sihat-salomatlik, mas’uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyat, sammit işiga samarali natijalar tilayman.

Şavkat MIRZIYOYEV,
Özbekiston Respublikasi Prezidenti

Anjuman

FARZANDLAR BAXTU KAMOLI – DUNYO NIGOHIDA

Samarqand yana bir nufuzli xalqaro anjumanga mezbonlik qilmoqda. “Buyuk Ipak yöli” turizm markazida “Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlarning barqaror va adolatli taraqqiyoti sari yöl” butunjahon sammiti hamda bolalar onkologiyasi böyiça II xalqaro kongressning oçiliş marosimi bölib ötdi.

Özbekiston taşabbusi bilan BMT Boş kotibining bolalarga nisbatan zöravonlik masalalari böyiça maxsus vakili, YUNISEF, Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti va Jahon banki hamkorligida taşkil etilgan tadbirlarda xalqaro taşkilotlar va yuzdan ortiq davlatlar vakillari, xorijiy va mahalliy ekspertlar, mutaxassislar hamda jamoatçilik faollari qatnaşmoqda.

Oçiliş marosimida Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning sammit qatnaşçilariga tabrigini Prezident matbuot kotibi Şerzod Asadov öqib eşittirdi.

Tabrikda aytilganidek, Özbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qiliş, maktabgaça ta’lim imkoniyatlarini kengaytiriş, ijtimoiy xizmatlarni oilalarga yaqinlaştiriş böyiça islohotlar davom etmoqda. Nogironligi bölgan bolalarning ta’lim olişiga, bolalarni zöravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilişga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Keng qamrovli islohotlar natijasida tuğuruq jarayonida onalar ölimi, bolalarning ösişdan ortda qolişi ikki barobar qisqardi, maktabgaça ta’lim qamrovi 27,7 foizdan 78 foizga oşirildi, olti yoşli bolalarning qariyb 100 foizi maktabga tayyorlovga jalb etildi, oliy ta’lim bilan qamrov 5 barobar – 9 foizdan 45 foizga oşdi.

Mamlakatimizda yaratilgan oila va bola ehtiyojini barvaqt aniqlab, yordam beradigan ijtimoiy himoya tizimi orqali sönggi beş yilda bolalar kambağalligi qariyb 4 baravar qisqardi.

Şu bilan birga, keyingi ikki yildagi islohotlar orqali inklyuziv maktablar soni 5 barobar ortib, nogironligi bölgan bolalarning 85 foizdan ortiği ta’lim xizmatlariga jalb etildi.

Tadbirda BMT Boş Assambleyasining 81-sessiyasi raisi Xalilur Rahmon sözga çiqib, anjumanni yuqori saviyada taşkil etgani uçun Özbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.

BMT Boş kotibi Antoniu Guterrişning sammit qatnaşçilariga murojaatini BMTning Özbekistondagi doimiy koordinatori Sabine Mahl öqib berdi.

Sammitda Özbekiston Respublikasining Birinçi xonimi, “Zamin” xalqaro jamoat fondi Vasiylik kengaşi raisi Ziroat Mirziyoyeva, BMT Boş kotibining bolalarga nisbatan zöravonlik masalalari böyiça maxsus vakili Najat Malla Mjid, Özbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinçi örinbosari Şahnoza Mirziyoyeva sözga çiqib, sammit işiga muvaffaqiyat tiladi.

Şundan söng panel sessiyalar boşlandi. Ularda xalqaro ekspertlar, davlat va xalqaro taşkilotlar vakillari tomonidan mavzuga oid eng muhim masalalar muhokama qilindi. Bolalar farovonligini ta’minlaş, ularni va oilalarni ijtimoiy himoya qiliş hamda zaruriy xizmatlarni körsatiş, bolalar salomatligi va soğliqni saqlaş, onkologiya, erta bolalik rivoji, inklyuziv ta’lim sohalaridagi dolzarb masalalar şular jumlasidandir.

Şuningdek, iştirokçilar bolalarni har tomonlama qöllab-quvvatlaşga qaratilgan yondaşuvlar, ilğor tajribalar va ularni amaliyotga tatbiq etiş imkoniyatlari yuzasidan fikr almaşmoqda.

Sammit doirasida Özbekistonda bolalar salomatligi, ta’limi va ijtimoiy himoyasi yönalişida amalga oşirilayotgan islohotlarga bağişlangan körgazma ham taşkil etildi.

Xalqaro delegatsiyalar körgazma davomida interfaol maydonlar va hayotiy hikoyalar orqali Özbekiston tajribasi bilan tanişib, bolalar farovonligi yölida hamkorlikni kengaytiriş imkoniyatlarini muhokama qiladi.

Ikki kun davom etadigan sammit davlatlar va xalqaro taşkilotlar uçun tajriba almaşiş, samarali yondaşuvlar muhokamasi hamda bolalar manfaatlari yölida hamkorlikni mustahkamlaş maydoni bölib xizmat qiladi.

Abdulaziz YÖLDOŞEV
(“Xalq sözi”).

ISTIQBOLLI LOYIHALAR QAŞQADARYONI ZAMONAVIY SANOAT VA AGROTEXNOLOGIYALAR MARKAZIGA AYLANTIRMOQDA

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

– Şu paytgaça qişloq xöjaligi texnikalarini xorijdan olib kelardik. Bu esa tannarxga ta’sir qilardi. Qaşqadaryoda fermerlarimizning işini yengillaştiradigan zamonaviy texnikalarning özimizda, özimizning brendimiz ostida işlab çiqarilişi bir paytlar orzu edi. Mahalliylaştiriş – qişloq xöjaligidagi islohotlarimizning uzviy davomi. Bunday işlarni izçil davom ettiramiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Qaşqadaryo viloyatiga taşrifi doirasida yangi loyihalarni işga tuşiriş va qurilişiga start beriş marosimida iştirok etdi.

Davlatimiz rahbari sönggi beş yilda viloyatga 20 trillion söm mablağ yönaltirilib, 7 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinganini qayd etdi. Xomaşyoni çuqur qayta işlaşga qaratilgan minglab loyihalar işga tuşirildi, aholi jon boşiga daromad uç baravar oşdi.

– Endi yetiştirilgan mahsulotni viloyatning özida çuqur qayta işlab, voha aholisining munosib daromad topişiga şaroit yaratiş kerak, – dedi Prezidentimiz.

Şu maqsadda umumiy qiymati 6 milliard dollardan ziyod bölgan 161 ta loyiha tayyorlangan. Marosimda 69 ta loyiha işga tuşirildi, yana 92 tasining qurilişiga start berildi.

Işga tuşirilayotgan 28 ta sanoat korxonasida 7 mingga yaqin doimiy iş örinlari yaratilmoqda. Italiyaning “Cotonella” brendi yiliga 8,5 million dona tayyor trikotaj mahsuloti işlab çiqarişni yölga qöymoqda. Koson, Mirişkor va Kasbi tumanlarida töqimaçilik sohasida yana 14 ta loyiha boşlanmoqda. Ular hisobidan 18 mingta iş örni yaratiş közda tutilgan.

Qişloq xöjaligi mahsulotlarini qayta işlaşda ham yangi quvvatlar taşkil etilmoqda. AQŞlik hamkorlar iştirokidagi “Wosune Food Ingredients Karşi” korxonasi 3,5 ming gektar maydonda yetiştiriladigan 100 ming tonna meva-sabzavotni qayta işlaydi. Uning 40 million dollarlik mahsulotini “Nestle” va “Purina” kabi xalqaro brendlar uçun eksportga yönaltiriş rejalaştirilgan. Misr va Pokiston investorlari esa Nişon va Ğuzor tumanlarida 24 ming gektar yerni özlaştirib, kartoşkaçilik va çorvaçilik loyihalarini boşlamoqda.

– “Yaşil” iqtisodiyot viloyatni rivojlantiriş uçun mustahkam poydevor böladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Oqsuv daryosida umumiy quvvati 24 megavatt bölgan uçta gidroelektr stansiyasi işga tuşirildi. Qarşi tumanida Xitoyning “Şanghai SUS” kompaniyasi iştirokida çiqindidan elektr energiyasi işlab çiqaradigan 150 million dollarlik zavodni yil yakuniga qadar işga tuşiriş rejalaştirilgan. Şuningdek, Kitob, Yakkaboğ va Şahrisabz tumanlarida umumiy quvvati 58 megavatt bölgan töqqizta mikroGES barpo etiladi.

Kitob tumanida Ozarbayjon bilan hamkorlikda oltin qazib oliş loyihasi boşlanmoqda. Şahrisabz tumanida esa rossiyalik investorlar bilan 300 million dollarlik dor yöli, mehmonxona va toğ-çanği kurorti majmuasini barpo etiş közda tutilgan.

Prezidentimiz xorijiy hamkorlar va investorlarga viloyatga sarmoya, yangi texnologiya va innovatsiyalar olib kirayotgani uçun minnatdorlik bildirdi. Ularning takliflari tinglandi.

– 2027-yil Qaşqadaryoni zamonaviy sanoat va agrotexnologiyalar asosida rivojlantiriş yili böladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Şundan söng Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, yangi loyihalarni işga tuşirdi va navbatdagilarining qurilişiga start berdi.

Keyin Prezident Şavkat Mirziyoyev “Qaşqadaryo” erkin iqtisodiy zonasidagi “Wosune Food Ingredients Karşi” korxonasi faoliyati bilan tanişdi.

Hududda yetiştirilayotgan meva-sabzavotlarni çuqur qayta işlaşga ixtisoslaştirilgan yangi korxona xomaşyodan yuqori qöşilgan qiymatli mahsulot tayyorlab, uni taşqi bozorlarga yetkazib beriş bilan şuğullanmoqda.

AQŞning “Wosune International Inc” kompaniyasi sarmoyasi hisobidan barpo etilgan korxonaning qiymati 8,5 million dollar. 150 ta doimiy iş örni yaratilgan.

Bu yerda sabzi, bulğor qalampiri, oşqovoq, olma, kök piyoz, ismaloq va turli kökatlar konveksion uskunalarda quritiladi. Uşbu texnologiya mahsulotning tabiiy ta’mi va ozuqaviy xususiyatlarini saqlaşga xizmat qiladi. Işlab çiqariş jarayonining 30 foizi robotlaştirilgan.

Tayyor ingrediyentlar tez tayyorlanadigan taomlar, ziravorlar, konservalar va kosmetika mahsulotlari işlab çiqaruvçi kompaniyalarga yetkazib beriladi. Mahsulotlar Rossiya, Yevropa va MDH davlatlariga eksport qilinmoqda. Yillik eksport hajmini 40 million dollarga yetkaziş rejalaştirilgan.

Xomaşyo ta’minotini kengaytiriş maqsadida viloyatdagi dehqon xöjaliklari bilan töğridan-töğri kooperatsiya aloqalarini yölga qöyiş közda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbari korxonaning işlab çiqariş jarayoni va mahsulotlarini közdan keçirdi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Qaşqadaryo ilğor kasbiy mahorat texnikumi va uning negizida taşkil etilgan “Kasblar şaharçasi” faoliyati bilan ham tanişdi.

Qiymati 42 milliard söm bölgan texnikum 5,2 gektar maydonda joylaşgan. Uning tarkibida öquv binolari va laboratoriyalar, ustaxonalar, yotoqxona, sport maydonçasi, oşxona va “Kasblar şaharçasi” barpo etilgan. Jami 14 ta bino va inşootni qamrab olgan muassasada 80 ta iş örni yaratilgan.

Hozir bu yerda 10 ta yönaliş böyiça 417 nafar yoş tahsil olmoqda. Öquv jarayoniga Germaniya, Şveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Janubiy Koreyaning ilğor tajribasi tatbiq etilmoqda.

Texnikum viloyatdagi boşqa kasbiy ta’lim muassasalari uçun ham metodik va amaliy baza bölib xizmat qiladi. Ularda tahsil olayotgan 2 ming 800 nafar öquvçi şu yerda amaliyot ötaydi. Amaliyot va dual ta’limni taşkil etiş böyiça 32 ta yirik taşkilot bilan şartnomalar tuzilgan, yana 11 tasi bilan hamkorlik yölga qöyilişi rejalaştirilgan.

Yil yakuniga qadar 500 nafar yoşni nemis tiliga öqitib, Germaniyada haq tölanadigan amaliyotga yuboriş közda tutilmoqda. Davlatimiz rahbari stajirovkaga ketayotgan bir guruh yoşlar bilan suhbatlaşdi.

– Barça sa’y-harakatlarimiz sizlar kasb egallaşingiz uçun. Kasbli bölsangiz, heç qaçon kam bölmaysizlar. Bilim va hunarni puxta egallasangiz, qayerda bölmang, öz örningizni topasizlar. Bugun sizlarga şunday imkoniyat berilyapti. Undan töğri foydalansangiz, özingiz, farzandlaringiz va nevaralaringiz uçun farovon hayotga zamin yaratasizlar. Şuning uçun bir daqiqangiz ham bekor ötmasin, – dedi Prezidentimiz.

Suhbatda maktab davridanoq kasb va til örgatişga e’tibor beriş zarurligi ham ta’kidlandi. “Kasblar şaharçasi” şu maqsadda maktab öquvçilarining qiziqiş va qobiliyatini erta aniqlaş, ularni kasbga yönaltiriş uçun taşkil etilgan.

Yoşlar bu yerda axborot texnologiyalari, “yaşil” energetika, robototexnika, dronlarni boşqariş va elektromobillarga xizmat körsatiş kabi yönalişlar bilan tanişadi. Şuningdek, tikuvçilik, oşpazlik, santexnika, zootexnika va agronomiya böyiça amaliy könikmalarni egallaydi.

Viloyatda amalga oşirilayotgan investitsiya loyihalari yangi mutaxassislarga ehtiyojni oşirmoqda. Şu bois texnikum imkoniyatlaridan töliq foydalaniş, ta’lim dasturlarini iş beruvçilar talabiga moslaştiriş va yoşlarni yangi korxonalar uçun maqsadli tayyorlaş muhimligi ta’kidlandi.

Şu yerda Qaşqadaryo viloyati ta’lim tizimidagi zamonaviy yondaşuvlar hamda Germaniya bilan hamkorlikdagi istiqbolli qöşma loyihalar yuzasidan axborot berildi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Qaşqadaryo viloyatiga taşrifi davomida “Yaşil makon” umummilliy loyihasi doirasida Ğuzor tumanida taşkil etilgan köçatçilik markaziga bordi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 23-sentyabrdagi farmoni bilan mahallalarning kökalamzorlaştirişdagi rolini kuçaytiriş, “3-30-300” tamoyili asosida yaşil hududlarni kengaytiriş vazifalari belgilangan. Yangi markaz faoliyati sifatli köçat yetiştirişni mahallalar ehtiyoji, daraxtlarni parvarişlaş va aholi bandligi bilan boğlaşga qaratilgan.

Xorij tajribasi asosida 65 gektar maydonda taşkil etilgan majmuaning qiymati 9,5 milliard söm. Bu yerda 100 ga yaqin iş örinlari yaratilgan.

Markazning 50 gektari manzarali daraxtlar, 5 gektari mevali daraxtlar, 3 gektari buta va gul köçatlarini yetiştirişga ajratilgan. Birinçi bosqiçda 1,6 million tup, keyingi bosqiçda 5 million tup nihol va köçat yetiştiriş közda tutilgan. Bu yerda 41 turdagi manzarali va ignabargli daraxt köçatlari mavjud.

Majmuada oçiq köpaytiriş maydonlari, issiqxona, uruğdan nihol yetiştiriş va köçatlarni soyalaş inşootlari barpo qilingan. Siğimi 4,2 ming kubometr bölgan uçta membranali suv havzasi taşkil etilib, 20 gektar maydonga tomçilatib suğoriş tizimi örnatilgan. Kompost va mulça tayyorlaş uskunalari hamda quyoş panellaridan foydalanilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar yil davomida, jumladan, ekiş mavsumidan taşqari vaqtda ham köçat yetiştiriş imkonini beradi. Hisob-kitoblarga köra, an’anaviy usullarga nisbatan yetiştiriş hajmi 8 – 10 barobar köpayib, suv sarfi 3 baravar kamayadi. Bu köçatlar tannarxini 30 – 40 foiz pasaytirişga xizmat qilişi kutilmoqda.

Markazda mahallalarni yaşillaştiriş uçun alohida xizmatlar yölga qöyilgan. Ular köçat va butalar yetkazib beriş, zararlangan daraxtlarni davolaş, mulçalaş hamda tomçilatib suğoriş tizimlarini taşkil etişni qamrab oladi. Har bir mahallaga örmonçi murabbiy biriktirilib, “yettilik” a’zolari uçun har bir ekiş mavsumi oldidan öquvlar ötkaziladi.

Aholi ham köçat yetiştiriş jarayoniga jalb qilinmoqda. Kooperatsiya şartnomalari asosida fuqarolarga nihollar yetkazib beriladi. Ular xonadonlarda bir-ikki mavsum parvarişlanib, tayyor köçatga aylangaç, kafolatli tarzda sotib olinadi. Bu oilalarga qöşimça daromad manbai yaratadi.

Davlatimiz rahbari markazda yaratilgan şaroitlarni közdan keçirib, köçat ekiş va boğ yaratiş xalqimizga xos ezgu an’ana ekanini ta’kidladi. Markazning mahallalarni kökalamzorlaştiriş va aholi daromadlarini oşirişdagi imkoniyatlari haqida axborot berildi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Ğuzor tumanida “Qaşqadaryo Jingu” korxonasi tomonidan Şinjon usulida paxta yetiştirilayotgan dalada böldi.

Davlatimiz rahbariga çigit ekiş, ğözani suğoriş va parvarişlaşda qöllanayotgan texnologiyalar haqida ma’lumot berildi. Bu yerda 2,2 ming gektar maydonga çigit plyonka ostiga qöş qatorlab ekilgan, tomçilatib suğoriş töliq joriy qilingan.

Plyonka tuproqdagi namlik va haroratni saqlab, çigitning erta hamda bir tekis unib çiqişiga yordam beradi. Suv va öğit esa tomçilatib suğoriş tizimi orqali bevosita ğöza ildiziga yetkaziladi. Natijada suv sarfi 30 – 40 foizga, öğit sarfi qariyb 30 foizga kamayadi. Hosil an’anaviy maydonlardagiga nisbatan 10 – 15 kun oldin pişib yetiladi.

Prezidentimiz paxtazorda yetiştirilgan hosil va agrotexnik tadbirlarni taşkil etiş jarayoni bilan tanişdi. An’anaviy usulda gektaridan 30 – 35 sentner paxta olinsa, Şinjon texnologiyasida bu körsatkiç 60 – 70 sentnergaça yetişi mumkin. Korxona dalalarida hosildorlik gektariga 55 sentnerni, yalpi hosil esa 12,3 ming tonnani taşkil etmoqda.

Dala işlarida agrodronlardan ham foydalanilmoqda. Bu ayrim agrotexnik tadbirlarni tezroq bajariş, yoniğı sarfini kamaytiriş imkonini bermoqda.

Xitoy sarmoyasi iştirokida taşkil etilgan “Qaşqadaryo Jingu” agroklasteri Koson, Nişon, Ğuzor, Kökdala va Mirişkor tumanlarida jami 18,3 ming gektar maydonda faoliyat yuritadi. Uşbu yerlarning katta qismi ilgari foydalanilmagan çöl va qarovsiz maydonlar bölgan. Loyihaga 128 million dollar investitsiya kiritilib, 50 ta iş örni yaratilgan. Eksport hajmi esa 8,5 million dollarni taşkil etadi.

Şu yerda davlatimiz rahbariga viloyat qişloq xöjaligida amalga oşirilayotgan işlar haqida ham axborot berildi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Qamaşi tumanidagi Çim mahallasida amalga oşirilgan bunyodkorlik işlari va aholi bandligini ta’minlaş çoralari bilan tanişdi.

“Yangi Özbekiston qiyofasidagi mahalla” sifatida rivojlantirilayotgan Çimda 5,5 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi, ularning qariyb yarmini yoşlar taşkil etadi.

Infratuzilmani yangilaşga 55 milliard söm yönaltirilib, 240 örinli bolalar boğçasi, 640 örinli maktab, mahalla va yoşlar markazlari, istirohat boği barpo etilgan. Şuningdek, 4,5 kilometr yöl qurilib, elektr ta’minoti va suğoriş tarmoqlari yangilangan.

Davlatimiz rahbari mahalla markazidagi öyingohda bolalar va ularning onalari bilan suhbatlaşdi. Yoşlar kutubxonasida esa kitobxon yigit-qizlarning maqsad va intilişlari bilan qiziqdi.

Muloqotda Prezidentimiz Özbek tili bayrami munosabati bilan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Halima Xudoyberdiyeva ijodini esladi. Tilga, milliy adabiyotga va ajdodlarimiz merosiga e’tibor ortib borayotganini qayd etdi.

– Bugun tilimizga, millatimizga va özligimizga bölgan ehtirom tobora yuksalmoqda. Odamlar yana kitob öqişga intilyapti. Ota-bobolarimizdan qolgan ma’naviy merosni qayta tiklayapmiz. Qamaşining Çim mahallasida ham şunday ma’naviy muhit, şunday şaroitlar yaratilmoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz oliy ta’lim imkoniyatlari kengaygani, bilimli va Vatanini sevadigan kadrlarni tayyorlaş mamlakat kelajagi uçun zarurligini ta’kidladi.

– Ilgari 100 nafar yoşdan atigi 9 nafari oliy ta’limda öqigan bölsa, bugun 45 nafari öqiyapti. Oliygohlarni taşkil etiş, professor-öqituvçilarga şaroit yaratiş katta mehnat talab qiladi. Lekin Özbekistonning kelajagi uçun milliy ğururi bor, Vatanni sevadigan kadrlar kerak. Men sizlarga işonaman. Jonajon Vatanimiz, Qaşqadaryo vohasining kelajagi sizlarning qölingizda, – dedi mamlakatimiz yetakçisi.

Çimda aholi daromadini oşiriş uçun ham imkoniyatlar yaratilgan. Xotin-qizlar mehnat qilayotgan gilamçilik va kaştaçilik korxonasiga 3,5 milliard söm sarmoya kiritilgan. Banklar kömagida 20 ga yaqin xonadonlarda umumiy maydoni 36 sotix bölgan issiqxonalar taşkil etilgan, mahsulotlarni saqlaş uçun 200 tonnalik muzlatkiç qurilgan. Bu işlar orqali 80 dan ortiq işsiz fuqarolarning bandligi ta’minlangan.

Şuningdek, kooperatsiya asosida limonçilik rivojlantirilmoqda. Aholiga köçat, öğit va agrotexnik xizmatlar yetkazib beriladi, yetiştirilgan hosil kafolatlangan narxda sotib olinadi. Limon köçatlari orasiga kartoşka, brokkoli va kökatlar ekilişi hisobiga daraxtlar hosilga kirguniga qadar har bir issiqxonadan qöşimça 14 – 16 million söm daromad olinmoqda.

Mahallada 70 ta tadbirkor faoliyatini kengaytirgan, yana 20 ta yangi tadbirkorlik subyekti taşkil etilgan. Avtomagistral böyidagi xizmat körsatiş obyektlari soni 31 tadan 137 taga yetib, 200 dan ortiq iş örinlari yaratilgan. Çim va unga qöşni mahallalardagi 1,2 mingta xonadon kooperatsiya asosida farmatsevtika va kosmetika sanoatida qöllaniladigan gulxayri ösimligini yetiştirmoqda.

Taşrif yakunida Prezidentimiz mahalla faollari va nuroniylar bilan suhbatlaşdi. Ular mahalladagi özgarişlar haqida öz fikrlarini bildirib, yurt farovonligi va yoşlar kelajagi uçun duo qildilar.

Prezident Şavkat Mirziyoyevning Qaşqadaryo viloyatiga taşrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Ölmas BAROTOV,
ÖzA maxsus muxbirlari.

Axborot texnologiyalari sohasida raqamli iqtisodiyotning yangi yönalişlarini rivojlantiriş hisobiga 2030-yilga qadar yana 500 mingta iş örni yaratiş vazifasi qöyilmoqda.

ÖZAK TOMIRLARIMIZDAN OZIQLANGAN BUYUK MEROS

1 Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oşirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy islohotlar özbek tili rivojini ham yangi darajaga kötardi. Bu borada qabul qilingan hujjatlar asosida uning davlat tili sifatidagi örni va maqomini mustahkamlaş, zamonaviy ilm-fan, axborot texnologiyalari va xalqaro munosabatlar tiliga aylantirişda katta qadamlar taşlandi. Xususan, yurtimizda geografik obyektlar nomlari davlat tili me'yorlariga muvofiqlaştirilyapti. Atamalar komissiyasi faoliyatining kuçaytirilgani hayotimizga keng miqyosda kirib kelayotgan yangi tuşunça va atamalarni tilimizga aniq qoida va tamoyillarga binoan qabul qilişda, til siyosatini ilmiy asosda yuritişda muhim örin tutmoqda.

Tilning hayotimizdagi örni, avvalo, undan qançalik samarali foydalanişimizga boğliq. Bola öz fikrini ravon bayon eta olsa, talaba murakkab mavzuni tuşungan holda örgansa, fuqaro rasmiy hujjat mazmunini osongina anglasa – til taraqqiyotining natijasi aynan şunda körinadi. Tabrikda ayni masalaga urğu qaratilar ekan, ta'lim sohasida asosiy e'tiborni öquvçining öqiş, tuşuniş, gapiriş va savodli yoziş könikmalariga qaratiş kerakligi ta'kidlandi.

Prezidentimizning "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilişi kerak", degan ezgu tamoyili bugun hayotimizning har bir jabhasida namoyon bölmoqda. Odamlar öz dardu taşvişlari, taklif va taşabbuslari bilan davlat idoralariga dadil murojaat qilmoqda. Biroq har bir murojaatga aniq, lönda va tuşunarli tilda javob qaytarilyaptimi, degan savol dolzarb masala bölib turibdi. Binobarin, tabrikda qayd etilganidek, davlat idoralari bu borada namuna bölişi şart. Qonun, qaror, yöriqnoma va murojaatlarga javoblar ravon, aniq va tuşunarli tilda yozilişi kerak. Fuqaro özining haq-huquqi yoki majburiyatini anglaş uçun ortiqça qiyinçilikka duç kelmasligi lozim. Davlat tiliga hurmat davlat xizmatining sifatida ham körinişi kerak.

Mamlakatimiz yetakçisi Vatanimiz mustaqilligining öttiz beş yilligiga bağişlangan tantanali marosimdagi nutqida özbek tili raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bölişi lozimligiga e'tibor qaratgan edi.

Darhaqiqat, özbek tilida zamonaviy ilmiy manbalardan foydalaniş va yangi tadqiqot natijalarini bayon etiş imkoniyatlarini kengaytiriş, luğatlarda lisonimizning jonli taraqqiyoti va yangi bilimlarni izçil aks ettirib boriş, bugungi raqamli muhitda sifatli matnlar va nutq namunalarini jamlaş, elektron luğatlar, tarjima va tahrir vositalarini rivojlantiriş alohida ahamiyatga ega.

Keça Prezidentimiz tomonidan imzolangan lotin yozuviga asoslangan özbek alifbosini takomillaştirişga oid



qonun bu borada muhim örin tutib, ona tilimizning raqamli makondagi mavqeini mustahkamlaşga xizmat qiladi.

Tantanali tadbirda sun'iy intellekt vositasida buyuk ajdodlarimizning ona tilimiz haqidagi fikrlari aks ettirilgan videorolik namoyiş qilindi.

Çet mamlakatlarning Özbekistondagi Favqulodda va muxtor elçilarining videotabrigi bayram şukuhini yanada oşirdi.

Ona tilimizning jozibasini namoyon etgan gözal şe'r va qöşiqlar, dilrabo raqslar yiğilganlar kayfiyatini yanada kötardi.

Tadbirda Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Oliy Majlis Qonunçilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov iştirok etdi.

Özbek tili bayrami kuni munosabati bilan ötkazilayotgan tadbirlar mamlakatimiz böylab davom etmoqda.

Dilşod KARIMOV ("Xalq sözi").

Uçraşuv

DÖSTONA ALOQALAR VA HAMJIHATLIK BELGISI

Qirğiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov TurkPA Kengaşining XV yalpi majlisi doirasida tuzilmaga a'zo davlatlar parlamentlari rahbarlari bilan uçraşdi.

Parlamentlar rahbarlari Prezident Sadir Japarovga samimiy qabul uçun minnatdorlik bildirib, Qirğiziston turkiy dunyo birligini mustahkamlaşga salmoqli hissa qöşayotganini ta'kidlab ötdi.

Jumladan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev va Qirğiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning siyosiy irodasi hamda özaro işonçga asoslangan muloqoti tufayli Özbekiston – Qirğiziston strategik şeriklik munosabatlari izçil rivojlanayotganiga e'tibor qaratdi.

Öz navbatida, Qirğiziston Prezidenti Bişkek şahrida bölib ötayotgan tadbir qardoş davlatlar örtasidagi döstlik, özaro işonç va hamjihatlik mustahkamlanib borayotganining yaqqol dalili ekanini ta'kidladi.

TurkPAning parlamentlararo muloqotni rivojlantiriş, integratsiya jarayonlarini qöllab-quvvatlaş va qardoş xalqlar örtasidagi köp qirrali hamkorlikni kengaytirişdagi ahamiyati qayd etildi.

Uçraşuvda assambleya faoliyati turkiy davlatlar örtasidagi aloqalarni mustahkamlaş, savdo-iqtisodiy, transport, energetika, raqamli va gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirişda muhim örin tutişi alohida ta'kidlandi.

HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Avval xabar berganimizdek, Bişkek şahrida Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi (TurkPA) Kengaşining XV yalpi majlisi bölib ötmoqda. Tadbir doirasida Özbekiston parlament delegatsiyasi rahbari, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Qirğiz Respublikasi Jogorku Keneşi Torağasi Marlen Mamataliyev bilan uçraşdi.

Muloqotda Özbekiston va Qirğiziston örtasidagi strategik şeriklik va ittifoqçilik munosabatlarini yanada mustahkamlaş, parlamentlararo hamkorlikni kengaytiriş masalalari muhokama qilindi.

Erişilgan ikki tomonlama kelişuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuçaytiriş, tegişli qömitalar örtasida hamkorlikni faollaştiriş va qonun ijodkorligi tajribasini almaşiş muhimligi ta'kidlandi. Şuningdek, parlament faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini qöllaş masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Hududlararo hamkorlikni rivojlantiriş, ayniqsa, çegaraoldi hududlarning mahalliy vakillik organlari örtasida aloqalarni kengaytiriş zarurligi ham qayd etildi. Şu munosabat bilan joriy yil yakuniga qadar Özbekistonda Birinçi hududlar forumini ötkaziş masalasi körib çiqildi.

Turizm, ta'lim va gumanitar sohalardagi aloqalarni rivojlantiriş, qöşma ta'lim dasturlari hamda akademik almaşinuvlarni qöllab-quvvatlaş, şuningdek, parlament delegatsiyalarining özaro taşriflarini muntazam taşkil etiş böyiça takliflar bildirildi.

Qonunçilik organlari örtasidagi muloqotlarni yanada faollaştiriş maqsadida navbatdagi Parlamentlararo komissiya yiğilişini 2027-yilda Namangan yoki Farğona viloyatida ötkaziş taklifi ilgari surildi. Uşbu tadbirda parlament qömitalari, mahalliy vakillik organlari va tadbirkorlar iştirokini ta'minlaş muhimligi qayd etildi.

Yangi qonun

MILLAT MA'NAVIYATINING MAYOĞI

Har bir millatning dunyodagi örni, avvalo, uning özligini qançalik anglaşi, tarixiy merosga munosabati va ma'naviy qadriyatlarini qay darajada asrab-avaylaşi bilan belgilanadi. Bu jarayonda ona tili alohida örin tutadi. Zero, zabon – nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tafakkuri, madaniyati, tarixiy xotirasi va milliy davlatçiligi ifodasidir. Şu bois özbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlaş, uning ijtimoiy hayotdagi nufuzini oşiriş va zamonaviy taraqqiyot bilan uyğun rivojlanişini ta'minlaş doimo dolzarb ahamiyat kasb etadi.



1989-yil 21-oktyabrda "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinişi mamlakatimiz tarixida muhim burilişlardan böldi. Uşbu tarixiy qaror özbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlab, milliy özlikni anglaş va ma'naviy qadriyatlarni tiklaş jarayonida muhim örin egalladi. Keyinçalik uşbu sananing Özbek tili bayrami kuni sifatida belgilanişi esa mazkur tarixiy voqeaning mazmunini yanada boyitdi. Bu sana lisonimizning ötmişi va bugunini sarhisob qiliş, uning kelajakdagi taraqqiyoti uçun ustuvor vazifalarni belgilaş imkonini beradi.

Ayniqsa, "Lotin yozuviga asoslangan özbek alifbosini joriy etiş töğrisida"gi Özbekiston Respublikasi Qonuniga özgartiriş kiritiş haqida"gi Qonunning aynan Özbek tili bayrami kuni imzolanişi, bir tomondan, davlat tilining maqomini belgilab bergan tarixiy sanani e'zolaş, ikkinçi tomondan, zabonimizni bugungi kun talablari asosida rivojlantirişga qaratilgan muhim qadam böldi. Bu, mohiyatan, ona tiliga hurmat faqat uning tarixini qadrlaş bilan çeklanmasdan, kelajak avlodlar uçun yanada qulay va mukammal til muhitini yaratişni ham nazarda tutadi.

Alifbo masalasi uzoq yillar davomida keng jamoatçilik muhokamasida bölib kelgani uning naqadar muhimligini körsatadi. Çunki yozuv tizimi ta'lim sifati, savodxonlik, iş yuritiş, naşriyot faoliyati va axborot almaşinuvi bilan bevosita boğliq. Qisqa aytsak, alifbo faqatgina harflar tizimi emas, balki bevosita millat kelajagi va ma'naviyatiga daxldor bölgan voqelikdir. Uning takomillaştirilişi esa yozma muloqotdagi ayrim noqulayliklarni kamaytiriş, imlo me'yorlarini izçil qöllaş va özbek tilidan zamonaviy texnologiyalarda foydalanişni yengillaştiriş nuqtayi nazaridan ahamiyatli.

Bugungi globallaşuv va raqamlaştiriş şaroitida lisonning nufuzi uning yangi bilimlarni ifodalaş, ilmiy tafakkurni rivojlantiriş va texnologik jarayonlarda faol iştirok etiş imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Özbek tilining internet, elektron ta'lim, ilmiy ma'lumotlar bazalari va sun'iy intellekt tizimlarida keng qöllanişi uning zamonaviy taraqqiyotdagi örnini mustahkamlaş uçun muhim. Şu ma'noda, yozuvni takomillaştiriş zabonimizning raqamli makondagi imkoniyatlarini kengaytirişga xizmat qilişi mumkin bölgan omillardan biridir.

Ayni paytda tilning davlat boşqaruvi, ta'lim, ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy hayotdagi amaliy qöllanişi, zamonaviy atamalarning izçil şakllanişi, sifatli özbekça adabiyotlar va elektron resurslarning köpayişi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, alifboni takomillaştirişga qaratilgan islohotlar til siyosatining kengroq vazifalari bilan uyğun holda amalga oşirilişi lozim.

Har qanday özgariş, ayniqsa, millionlab insonlarning kundalik hayotiga taalluqli bölgan islohot muayyan tayyorgarlik va tuşuntiriş işlarini talab qiladi. Şu sababli yangi yozuv me'yorlarini joriy etişda ta'lim muassasalari, naşriyotlar, davlat taşkilotlari va axborot tizimlarining tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratiş zarur. Aholining hujjatlar, darsliklar, peşlavhalar va boşqa materiallarga oid savollariga aniq javob beriş, özgarişlarni bosqiçma-bosqiç amalga oşiriş va ortiqça xarajatlarning oldini oliş ham muhim vazifalardan. Islohotning samarasi esa, avvalo, uning mazmuni aholiga qay darajada tuşunarli yetkazilişi va amaliyotga izçil tatbiq etilişiga boğliq.

Gulnora MA'RUFOVA,
Oliy Majlis Senatining
Fan, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi a'zosi.

ÖZBEK ALIFBOSINI TAKOMILLAŞTIRIŞGA QARATILGAN HUJJAT

Xalqimizning köp asrlik madaniy-ma'rifiy, ilmiy va badiiy tafakkurining yorqin hamda bebaho közgusi bölgan özbek tili dunyodagi eng boy va qadimiy lisonlardan biri hisoblanadi.



Keyingi yillarda Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda özbek tilini rivojlantiriş, uning davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini yanada yuksaltiriş borasida keng kölamli islohotlar amalga oşirilmoqda. Bugun özbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va xalqaro munosabatlarda tobora keng qöllanilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda ham uni örganişga bölgan qiziqiş yil sayin ortib bormoqda.

Prezidentimizning Özbek tili bayrami kuni munosabati bilan xalqimizga yöllangan tabrigida ona tilimizni asrab-avaylaş, uning boy imkoniyatlarini keng namoyon etiş va kelgusi avlodlarga bezavol yetkaziş har birimiz uçun ham şarafli, ham mas'uliyatli vazifa ekani ta'kidlandi. Şuningdek, özbek tilining jamiyat hayotidagi örnini yanada mustahkamlaş, uni ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar tili sifatida rivojlantiriş zarurligiga e'tibor qaratildi.

Şu nuqtayi nazardan, özbek alifbosini takomillaştirişga qaratilgan qonunning qabul qilinişi muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari tomonidan 21-oktyabr kuni imzolangan mazkur hujjat özbek alifbosini zamonaviy axborot texnologiyalari talablariga moslaştiriş, uning xalqaro raqamli muhitdagi qöllaniş imkoniyatlarini kengaytirişga keng yöl oçadi.

Ta'kidlaş joizki, alifboni takomillaştirişga qaratilgan özgarişlar bir kunda paydo bölgan emas. Mazkur masala sönggi beş yil davomida keng jamoatçilik muhokamasidan ötkazilib, tilşunos olimlar, adiblar, öqituvçilar, axborot texnologiyalari mutaxassislari, naşriyot vakillari, blogerlar hamda keng jamoatçilikning fikr va takliflari örganildi.

Xöş, takomillaştirilgan alifbo qanday imkoniyatlar yaratadi?

Birinçidan, axborot texnologiyalaridagi mavjud muammolarni bartaraf etişga xizmat qiladi. Amaldagi "Ö" va "Ğ" harflarini yozişda turli texnik belgilardan foydalanilişi yagona standartni şakllantirişga tösqinlik qilmoqda. Takomillaştirilgan alifbo uşbu muammolarni kamaytiriş, matnlarni elektron şaklda qayta işlaş va ular bilan muomaladagi texnik noqulayliklarni bartaraf etiş imkonini beradi.

Ikkinçidan, özbek tilini raqamlaştiriş va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantiriş uçun mustahkam asos yaratadi. Amaldagi yozuvda ayrim harflarning turli texnik körinişlarda ifodalanişi axborot tizimlarida matnlarni bir xilda qabul qilişga xalaqit bermoqda. Alifboni takomillaştiriş uşbu muammolarni kamaytiriş, özbek tilidagi raqamli resurslarni rivojlantiriş va sun'iy intellekt asosidagi til modellarini yaratiş uçun qulay şaroit yaratadi.

Uçinçidan, xalqaro standartlarga moslaşuvni ta'minlaşga kömaklaşadi. Taklif etilgan "Ş", "Ç", "Ğ" va "Ğ" harflari turli alifbolarda, jumladan, turk, ozarbayjon, turkman, qrim-tatar, nemis, şved, fin va venger tillarida qöllaniladi. Ularning Yunikod standartida mavjudligi raqamli muhitda matnlarni kodlaş, saqlaş va qayta işlaş imkoniyatlarini kengaytiradi.

Törtinçidan, imlo tizimini takomillaştiriş uçun huquqiy asos yaratadi. Qonunning amalga oşirilişi bilan takomillaştirilgan alifboga mos imlo qoidalarini işlab çiqiş, mavjud imloviy va texnik muammolarni bartaraf etiş hamda yozuvdagi birxillikni ta'minlaş imkoniyati kengayadi.

Alifboni takomillaştirişdagi muhim vazifalardan biri yangi yozuvga ötiş jarayonida davlat organlari, taşkilotlar va fuqarolar uçun ortiqça taşkiliy hamda moliyaviy yuk yuzaga kelmasligini ta'minlaşdir.

Şu maqsadda qonunda u kuçga kirguniga qadar rasmiylaştirilgan hujjatlar, milliy valyuta va qimmatli qoğozlarning amal qilişi saqlab qolinişi, şuningdek, davlat organlari va taşkilotlarining ramziy belgilari, peşlavhalari, körsatkiçlari hamda boşqa atributlaridan belgilangan muddatgaça foydalaniş tartibi nazarda tutildi.

Mazkur yondaşuv amalda foydalanilayotgan hujjatlar, blankalar, peşlavhalar, körsatkiçlar va boşqa moddiy vositalarni bir vaqtning özida almaştiriş zaruratini bartaraf etadi. Buning natijasida Davlat byudjeti mablağlari asossiz sarflanişining oldi olinadi, qöşimça xarajatlar kamaytiriladi va alifbodagi özgarişlarni moliyaviy jihatdan maqbul tarzda, bosqiçma-bosqiç amalga oşiriş imkoniyati yaratiladi.

Demak, yangi alifboga ötiş amaldagi hujjatlar va vositalarni birdaniga yangilaşni emas, balki özgarişlarni izçil va oqilona joriy qilişni nazarda tutadi. Albatta, bu böyiça aholi örtasida tuşuntiriş işlarini olib boriş, ta'lim muassasalarini zarur materiallar bilan ta'minlaş va ötiş jarayonini puxta taşkil etiş muhim ahamiyatga ega.

Qonunning qabul qilinişi va imzolanişi lotin yozuviga asoslangan özbek alifbosi va imlo qoidalarini takomillaştiriş, davlat tilining qöllaniliş imkoniyatlarini kengaytiriş hamda uni raqamli muhitda rivojlantiriş uçun muhim huquqiy asos yaratdi.

Dilmurod ARTIQOV,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasi deputati.

Senat qömitasida

YÖL HARAKATI XAVFSIZLIGI MASALALARI E'TIBOR MARKAZIDA

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi yiğilişida "Yöl harakati xavfsizligini ta'minlaş yanada takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş töğrisida"gi qonun dastlabki tarzda körib çiqildi.

Unda ayni mavzu bilan boğliq bölgan yöl harakati xavfsizligini ta'minlaşni takomillaştiriş, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining xizmatini munosib e'tirof etiş hamda favqulodda vaziyatlar monitoringi holatiga oid masalalar muhokamaga tortildi. Öz navbatida, yöl-transport hodisalarining oldini oliş, qoidabuzarliklar uçun javobgarlik muqarrarligini ta'minlaş va eng muhimi, inson hayoti hamda salomatligini muhofaza qiliş masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Şundan söng "Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori" faxriy unvonini ta'sis etiş töğrisida"gi qonun ham muhokama qilindi.

Uşbu taşabbus profilaktika inspektorlarining fidokorona mehnatini e'tirof etiş, kasb nufuzini oşiriş va mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini oliş borasidagi faoliyatini rağbatlantiriş nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi.

Majlisning navbatdagi masalasi tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi holati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament sörovi natijalariga bağişlandi.

Sözga çiqqanlar sohada amalga oşirilgan işlar bilan bir qatorda, xavfli jarayonlarni barvaqt aniqlaş va ilmiy asosda prognoz qiliş, idoralararo axborot almaşinuvini kuçaytiriş hamda aholini öz vaqtida ogohlantiriş tizimini takomillaştiriş zarurligini qayd etdi. Ayni çoğda, inson hayoti va salomatligini muhofaza qiliş, jamoat xavfsizligini mustahkamlaş hamda favqulodda vaziyatlarning oldini oliş böyiça mas'ul idoralar faoliyati samaradorligini oşiriş muhimligi ta'kidlandi.

Majlis yakunida qömitaning tegişli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq sözi".

MULOQOT MAVZUSI – PARLAMENT NAZORATI MEXANIZMLARI

Oliy Majlis Senatida Boş prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarşi kuraşiş departamentining kasbiy bilim va könikmalarni oşirişga qaratilgan öquv maşğulotlarida qatnaşayotgan xodimlari uçun uçraşuv taşkil etildi.

Tadbir

Undan közlangan maqsad iştirokçilarda Senatning konstitutsiyaviy maqomi va vakolatlari, qonun ijodkorligi jarayonidagi örni, parlament nazoratining şakl hamda mexanizmlari, şuningdek, iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarşi kuraşişda parlament nazoratining ahamiyati haqidagi bilimlarini yanada kengaytirişdir.

Tadbirda Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarşi kuraşiş qömitasi raisi Abdulhakim Eşmuratov yuqori palataning konstitutsiyaviy maqomi, asosiy vazifalari va faoliyat yönalişlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

Qonun ijodkorligi jarayonida Senatning örni, qonunlarni körib çiqiş tartibi, parlament nazoratini amalga oşiriş mexanizmlari hamda parlamentlararo hamkorlikning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi.

Uçraşuv davomida parlament nazoratining davlat organlari faoliyati samaradorligini oşiriş, qonunçilik hujjatlari ijrosini ta'minlaş va qonuniylikni mustahkamlaşdagi örni yuzasidan fikr almaşildi. Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarşi kuraşiş yönalişida faoliyat yuritayotgan xodimlar uçun qonunçilik talablarini çuqur biliş, davlat organlarining vakolatlarini töğri anglaş, parlament nazorati mexanizmlaridan xabardor böliş muhimligi ta'kidlandi.

Tadbir yakunida iştirokçilarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob berildi.

"Xalq sözi".

Baliqçi tajribasi asosida kelgusi yilda hududlarda jami 200 gektar maydonda kambağal oilalar va işsizlar uçun energotejamkor issiqxona majmualarini barpo etiş rejalaştirilgan.

QÖMITA VA VAZIRLIK ÖRTASIDA MEMORANDUM IMZOLANDI

Oliy Majlis Qonunçilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qiliş masalalari qömitasi a'zolari Toğ-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda uning tizim taşkilotlarida bölib, yer osti suv resurslarini muhofaza qiliş, ulardan oqilona foydalaniş borasida amalga oşirilayotgan işlar bilan tanişdi.

Oçiq parlament

Bugungi kunda suv resurslarini asrab-avaylaş, yer qa'ridan va foydali qazilmalardan oqilona foydalaniş, geologiya sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etiş hamda nazorat mexanizmlarini takomillaştiriş dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, yer osti suvlari zaxiralarini saqlaş, ularning kamayişi va ifloslanişining oldini oliş, suv resurslarini hisobga oliş hamda ulardan foydalanişda qonuniylikni ta'minlaş muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda uşbu yönalişdagi munosabatlarni huquqiy tartibga soliş, tabiiy resurslardan samarali foydalaniş va ekologik xavfsizlikni ta'minlaşga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar imzolangan. Jumladan, Suv, Yer kodekslari, "Yer qa'ri töğrisida"gi Qonun, şuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 7-dekabrdagi "Yer osti suv resurslarini muhofaza qiliş va ulardan oqilona foydalanişni tartibga soliş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi qarori sohadagi huquqiy asoslarni mustahkamlaşga xizmat qilmoqda.

Muloqot çoğida uşbu yönalişda olib borilayotgan sa'y-harakatlar, sohadagi mavjud muammolar va ularning yeçimlari muhokama etildi. Parlament nazorati samaradorligini oşiriş hamda özaro hamkorlikning ustuvor yönalişlarini belgilaş masalalariga e'tibor qaratildi.

Samarqand va Navoiy viloyatlari misolida yer osti suvlaridan foydalaniş holati yuzasidan qömita ötkazgan nazorat-tahlil tadbirlari natijalari böyiça qabul qilingan qaror ijrosi yuzasidan amalga oşirilgan işlar ham körib çiqildi. Taqdim etilgan tahliliy ma'lumotlarda erişilgan natijalar bilan birga, yeçimini kutayotgan masalalarga ham e'tibor qaratildi.

Deputatlar, şuningdek, Yer qa'ridan foydalaniş markazi, Toğ-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qiliş inspeksiyasi, "Özbekgidrogeologiya" davlat muassasasi hamda Gidroingeo instituti faoliyati bilan tanişdi. Yer qa'ri uçastkalarini auksionga çiqariş, ruxsatnomalar beriş, nazorat mexanizmlari, yer osti suvlari monitoringi, gidrogeologik ma'lumotlarni raqamlaştiriş va ilmiy tadqiqot işlari yuzasidan fikr almaşildi. Davlat geologiya muzeyi ekspozitsiyalari ham közdan keçirildi.

Uçraşuv doirasida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qiliş masalalari qömitasi hamda Toğ-kon sanoati va geologiya vazirligi örtasida özaro hamkorlik töğrisidagi memorandum imzolandi. Mazkur hujjat yer osti suvlaridan oqilona foydalaniş va ularni muhofaza qiliş böyiça qonunçilikni takomillaştiriş, hamkorlikda nazorat-tahlil tadbirlarini taşkil etiş, huquqbuzarliklarning oldini oliş va aniqlangan muammolarni bartaraf qiliş böyiça takliflar işlab çiqişni nazarda tutadi.

Yakunda sohadagi muammolarni birgalikda tahlil etiş, qonunçilikni takomillaştiriş böyiça takliflar işlab çiqiş yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

"Xalq sözi".

IJOD VA TARJIMA MAKTABI – YOŞLAR IXTIYORIDA

21-oktyabr – Özbek tili bayrami kuni munosabati bilan Özbekiston davlat jahon tillari universitetida Özbekiston Qahramoni Ibrohim Ğafurov nomidagi Tarjima va ijod maktabi oçildi.



Ehtirom

Şu munosabat bilan taşkil etilgan tadbirda Özbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatçisi, Özbekiston xalq yozuvçisi Xayriddin Sultonov va boşqalar iştirok etib, Ibrohim Ğafurovning özbek adabiyoti, adabiyotşunosligi hamda tarjima san'ati rivojiga qöşgan ulkan hissasi, boy ijodiy merosini örganiş va kelajak avlodga yetkaziş muhimligini ta'kidladi.

Şu kuni atoqli ijodkor haykalining tantanali oçiliş marosimi ham bölib ötdi.

Tadbir davomida universitet talabalari turli xorijiy tillarda Ibrohim Ğafurovning hayoti, ijodi va tarjimonlik faoliyati haqida ma'lumotlar taqdim etişdi. Ular öz çiqişlarida ijodkorning jahon adabiyoti va özbek kitobxonlari örtasidagi ma'naviy köprikni mustahkamlaşdagi xizmatlarini alohida yoritib berdi.

Marosimning muhim qismi – Tarjima va ijod maktabi öquv xonasining tantanali oçilişi böldi. Universitet rektori iştirokçilarni maktab faoliyati, uning maqsad va vazifalari hamda yaratilgan şaroitlar bilan taniştirdi.

Eng muhimi, bu ilmiy-ma'rifiy maskan talabalarning tarjimonlik mahorati va ijodiy salohiyatini rivojlantiriş, badiiy tarjimaga qiziqişini oşiriş hamda milliy tarjima an'analarini davom ettirişga qaratilgan sa'y-harakatlarda yetakçi rol öynaydi.

Iqbol PARDAYEVA.

IŞONÇ DIPLOMATIYASI

Özbekiston Osiyoda hamkorlik va işonç çoralari böyiça kengaşda taşabbuskor davlatdan kun tartibini şakllantiruvçi iştirokçiga aylanmoqda

15-oktyabr kuni Boku şahrida Osiyoda hamkorlik va işonç çoralari böyiça kengaş (OHIÇK) davlat va hukumat rahbarlarining yettinçi sammiti bölib ötdi. Xalqaro munosabatlarda muloqot taqçilligi va noaniqlik kuçayib borayotgan bir paytda qit'a hududi va aholisining qariyb 90 foizini qamrab olgan uşbu maydonning ahamiyati tobora ortmoqda. Sammitda Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev Kengaşning insoniy ölçovi böyiça koordinator maqomiga tayangan holda Osiyoda "işonç infratuzilmasi"ni şakllantiriş ğoyasini ilgari surdi.

Xöş, Özbekiston bu tuzilmada qanday örin egalladi, ilgari surilgan ğoyalar qay darajada hayotga tatbiq etilyapti va hamkorlik mamlakatimizga nima bermoqda?

Aks sado

Munosabatlarning barqaror tizimi

Sammit kun tartibidan Osiyoda işonç, tinçlik va xavfsizlikni mustahkamlaş, Kengaşning institutsional rivojlanişi, transport boğliqligi, raqamlaştiriş va barqaror iqtisodiy ösiş masalalari örin oldi. Sammitda Laos Kengaşga a'zo etib qabul qilindi, Ozarbayjonning raisligi esa 2028-yilgaça davom ettirilişi ma'qullandi.

Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida Ozarbayjonning Kengaşdagi samarali raisligini yuqori baholab, bu davrda OHIÇK doirasidagi muloqot yanada mazmunli tus olib, amaliy natijalarga boy bölganini ta'kidladi. Osiyoning turli hududlaridagi qurolli mojarolar, Yaqin Şarqdagi vaziyat va Ğazodagi gumanitar ahvoldan xavotir bildirgan Prezidentimiz nizolarni xalqaro huquq asosida, siyosiy-diplomatik yöl bilan hal etiş zarurligini alohida qayd etdi. "Muloqot susaygan joyda notöğri qarorlar qabul qiliş xavfi ortadi", dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz fikriça, Kengaşning boş vazifasi Osiyoda zimmaga olingan majburiyatlarni bajarişga asoslangan munosabatlarning barqaror tizimini, ya'ni yaxlit "işonç infratuzilmasi"ni yaratişdir. Şu maqsadda özaro boğliq qator taşabbuslar ilgari surildi. Davlatimiz rahbari, şuningdek, Kengaşning taşkiliy asoslarini yanada mustahkamlaş va uning nizomini takomillaştirişni, boş kotib lavozimiga Ozarbayjon vakili nomzodini qöllab-quvvatlaşini bildirdi. Nutq yakunida Özbekiston kelgusi yili Qöşilmaslik harakatining yigirmançi sammitiga mezbonlik qilişi va 2030-yilga qadar uşbu taşkilotga raislik maqomida bölişi aytildi.

Osiyoda işonç infratuzilmasini şakllantiriş konsepsiyasi Kengaş faoliyatining uzoq muddatli ustuvor yönalişlarini belgilaş, davlatlar örtasidagi özaro boğliqlikni kengaytiriş va amaliy hamkorlikni rivojlantirişga qaratilgan aniq çora-tadbirlar qamrab olingan hujjatni işlab çiqişni közda tutadi. Konsepsiyaning asosiy yönalişlari sifatida qöşma transport va energetika loyihalarini amalga oşiriş, savdo aloqalari va raqamli boğliqlikni rivojlantiriş, şuningdek, madaniy-gumanitar almaşinuvlarni kengaytiriş belgilangan.

OHIÇK 34 yil davomida işonç çoralarini, asosan, ixtiyoriy va deklarativ şaklda amalga oşirib keldi. Kengaş hujjatlari yuridik majburiy emas, ularning ijrosi esa a'zolarning faolligiga boğliq. Konsepsiya "işonç" tuşunçasini siyosiy şiordan zimmaga olingan majburiyatlar ijrosiga tayanadigan barqaror munosabatlar tizimiga aylantirişni nazarda tutadi. Ustav böyiça muzokaralar izçil olib borilayotgan va Ozarbayjon raisligi 2028-yilgaça davom etadigan şaroitda bunday hujjat taşkilotning strategik asosiga aylanişi mumkin. Özbekiston uçun esa u Markaziy va Janubiy Osiyo boğliqligi, Termiz muloqoti kabi taşabbuslarni yagona konseptual tizimga birlaştiriş imkoniyatini beradi.



Hamkorlikning izçilligi va natijadorligini ta'minlaş, belgilangan ustuvor yönalişlar böyiça sa'y-harakatlarni muvofiqlaştiriş maqsadida Kengaşning keyingi ikki yilga möljallangan Harakatlar dasturini işlab çiqiş taklif qilindi.

Dasturning muddati Ozarbayjon raisligining 2028-yilgaça davom etadigan davriga mos keladi. U Boku sammitida ilgari surilgan ğoyalarni aniq muddatlar va ijroçilar bilan boğlaş, ya'ni taşabbuslarni deklaratsiyadan ijroga ötkaziş vositasi bölib xizmat qilişi mumkin.

Ilgari surilgan taşabbuslar yagona mantiq bilan boğlangan. Unga köra, işonç siyosiy-institutsional (konsepsiya va Harakatlar dasturi), texnologik (sun'iy intellekt), ekologik (iqlim barqarorligi) va insoniy (inson salohiyati) ölçovlarda bir vaqtda şakllanişi lozim. Şu ma'noda Özbekiston Kengaşga işonçning yaxlit arxitekturasi modelini va uni amalga oşiriş "Yöl xaritasi"ni taklif etmoqda.

Yangi davrda parlamentning örni muhim

OHIÇK, avvalo, davlat va hukumat rahbarlari hamda taşqi işlar idoralari darajasidagi muloqot maydonidir. Uning tuzilmasida parlamentlararo hamkorlikning alohida institutsional mexanizmi hozirça nazarda tutilmagan. Biroq Kengaş faoliyatining yangi bosqiçida parlamentlarning roli sezilarli darajada ortmoqda. Buning sababi şundaki, huquqiy majburiy Ustav, Kotibiyat va xodimlarining xalqaro maqomi, imtiyoz va immunitetlarga oid hujjatlar a'zo davlatlarning içki davlat tartib-taomillariga, aksariyat hollarda esa parlament ratifikatsiyasiga muvofiq kuçga kiradi.

Özbekistonda xalqaro şartnomalar ratifikatsiyasi bilan boğliq qonun Oliy Majlis Qonunçilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanadi va Prezident imzolaganidan keyin amaliyotga joriy etiladi. Demak, kelgusida OHIÇK Ustavi tasdiqlangaç, uni ratifikatsiya qiliş, şuningdek, mamlakatimizga yuklanadigan majburiyatlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oşiriş vazifasi bevosita Oliy Majlis zimmasiga tuşadi. Şu bois Qonunçilik palatasining Xalqaro işlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi hamda Senatning Xalqaro munosabatlar, taşqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qömitasi uçun Ustav böyiça muzokaralar jarayonini oldindan örganib boriş muhim ahamiyat kasb etadi.

Boku sammitida ilgari surilgan taşabbuslarning ijrosi ham parlament iştirokini kun tartibiga çiqaradi. Davlatimiz rahbari Kengaşning taşkiliy asoslarini mustahkamlaş va uning nizomini takomillaştirişni qöllab-quvvatlagani kelgusida tegişli hujjatlarni ratifikatsiya qiliş masalasini amaliy tus oldiradi. Ekspertlar maydonida sun'iy intellektdan mas'uliyat bilan foydalaniş böyiça işlab çiqiladigan umumiy tavsiyalarni milliy qonunçilikka tatbiq etiş, iqlim barqarorligi böyiça şeriklik doirasida suvdan foydalaniş va "yaşil" energetikaga oid huquqiy bazani uyğunlaştiriş, "işonç infratuzilmasi" konsepsiyasidan kelib çiqadigan majburiyatlar ijrosini nazorat qiliş qonun ijodkorligi va parlament nazorati sohasiga bevosita daxldordir.

Oliy Majlis bugungi kunda ham Kengaş kun tartibiga bilvosita, ammo sezilarli hissa qöşib kelmoqda.

Birinçidan, parlament diplomatiyasi orqali OHIÇKga a'zo davlatlar bilan aloqalar mustahkamlanmoqda. Jumladan, joriy yil oktyabrda Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi doirasida Senat Raisi Tanzila Norboyeva va Ozarbayjon Milliy Mejlisi Spikeri Saxiba Gafarova Özbekiston – Ozarbayjon ikkinçi parlamentlararo forumini ötkaziş hamda 2027-2028-yillarga möljallangan qöşma amaliy tadbirlar rejasini işlab çiqişga kelişib oldi. Şuningdek, Ozarbayjon tomoni Özbekistonning Qöşilmaslik harakatiga raisligi davrida Harakatning Parlament tarmoği doirasida muvofiqlaşişga tayyorligini bildirdi. Raisligi 2028-yilgaça davom etadigan davlat bilan parlamentlararo hamkorlikning çuqurlaşuvi sammit qarorlarini ikki tomonlama darajada amalga oşirişga ham xizmat qiladi.

Ikkinçidan, Oliy Majlis delegatsiyasi OHIÇKda 2012-yildan kuzatuvçi maqomiga ega bölgan Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi (TurkPA) tadbirlarida ham iştirok etmoqda. Jumladan, 2024-yil iyunida Bokuda bölib ötgan TurkPAning XIII yalpi majlisida Senat Raisi parlament tadqiqot institutlari, markazlari va tegişli qömitalar örtasida muntazam hamkorlikni yölga qöyiş, qöşma tadqiqotlar asosida hukumatlarga ilmiy asoslangan tavsiyalar taqdim etişni taklif qilgan edi. OHIÇK Kotibiyatining 2025-yilgi hisobotida esa Kengaş Yoşlar kengaşini TurkPAning Yoş parlamentariylar guruhi bilan, Ayollar kengaşini esa Ayol parlamentariylar guruhi bilan boğlaş ilgari surilgan. Bu Kengaşning özi ham parlament kanallariga ehtiyoj sezayotganidan dalolat beradi.

Uçinçidan, Oliy Majlis köp tomonlama parlament forumlarini taşkil qiliş böyiça katta tajriba töpladi. 2025-yil 5 – 9-aprel kunlari Toşkentda Markaziy Osiyoda ilk bor Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi ötkazildi. Ittifoqning 2025-yil böyiça hisobotida Senatning assambleya qarorlarini milliy taraqqiyot ustuvorliklari bilan uyğunlaştiriş böyiça "Yöl xaritasi" e'tirof etilib, qarorlarni milliy darajada tizimli amalga oşiriş yondaşuvi boşqa parlamentlar uçun namuna sifatida baholandi. Aynan şu tajribani OHIÇK sammitlari qarorlari, xususan, Boku taşabbuslari ijrosiga tatbiq qiliş mumkin.

OHIÇK transformatsiyasi Oliy Majlis uçun yangi vazifalar bilan birga yangi imkoniyatlarni ham yuzaga keltirmoqda.

> *"Ilgari surilgan taşabbuslar yagona mantiq bilan boğlangan. Unga köra, işonç siyosiy-institutsional (konsepsiya va Harakatlar dasturi), texnologik (sun'iy intellekt), ekologik (iqlim barqarorligi) va insoniy (inson salohiyati) ölçovlarda bir vaqtda şakllanişi lozim. Şu ma'noda Özbekiston Kengaşga işonçning yaxlit arxitekturasi modelini va uni amalga oşiriş "Yöl xaritasi"ni taklif etmoqda."*

Imkoniyatlardan samarali foydalaniş yölida

OHIÇK faoliyatining yangi davrida Özbekiston uçun keng imkoniyatlar oçilmoqda. Fikrimizça, ulardan töliq foydalaniş uçun bir neçta yönalişda işni kuçaytiriş maqsadga muvofiq.

Birinçidan, koordinatorlik maqomini kengaytiriş. Hozirda Özbekiston 18 ta ustuvor yönalişdan faqat bittasini muvofiqlaştiradi. Boku sammitida ilgari surilgan sun'iy intellekt böyiça Osiyo taşabbusi va Ekspertlar maydoni hamda iqlim barqarorligi böyiça şeriklik mamlakatimizga texnologik va ekologik yönalişlarda muvofiqlaştiruvçi rolni egallaş uçun tabiiy asos böladi. Transport yölaklari va qişloq xöjaligi yönalişlaridagi hamkoordinatorlik esa Transafğon yölagi, Termiz xabi va oziq-ovqat xavfsizligi taşabbuslarini Kengaş tizimida institutsional jihatdan mustahkamlagan bölar edi.

Ikkinçidan, Termiz muloqotini OHIÇK bilan doimiy hamkorlik platformasiga aylantiriş va uning tavsiyalarini Kengaşning Yuqori mansabdor şaxslar qömitasida muntazam taqdim etib boriş.

Uçinçidan, insoniy ölçov koordinatori sifatida madaniy meros yönalişini işga tuşiriş. OHIÇK Kotibiyatining 2024-yilgi şarhiga köra, uşbu ölçovda 2021 – 2024-yillarda 7 ta tadbir ötkazilgan, harakatlar rejasidagi "madaniy meros" bandlari esa hali amalga oşirilmagan. Kelgusi yili Özbekistonda ötkaziladigan Inson salohiyatini rivojlantiriş böyiça forum doirasida Samarqand, Buxoro yoki Xivada madaniy merosga bağişlangan maxsus sessiya taşkil qiliş bu böşliqni töldirib, mamlakatimizning turizm salohiyatini ham namoyon etgan bölar edi.

Törtinçidan, Kengaşda parlament ölçovini şakllantiriş. Oliy Majlis OHIÇK mamlakatlari parlamentlarining xalqaro işlar böyiça qömitalari muloqotini Samarqandda ötkaziş taşabbusi bilan çiqişi, Parlamentlararo Ittifoq tajribasidagi kabi Boku sammiti qarorlari va taşabbuslari ijrosi böyiça parlament "Yöl xaritasi"ni qabul qilişi, Yoşlar parlamenti a'zolarini esa OHIÇK Yoşlar kengaşi faoliyatiga jalb etişi mumkin. Taşkilotning bölajak Ustavini muzokaralar bosqiçidayoq parlament ekspertizasidan ötkaziş kelgusida uni ratifikatsiya qiliş jarayonini tezlaştiradi.

Beşinçidan, Boku taşabbuslari böyiça idoralararo "Yöl xaritasi"ni işlab çiqiş va Kengaşning ikki yillik Harakatlar dasturi loyihasiga Özbekiston takliflarini kiritiş, har bir taşabbusni Kengaşning muayyan ustuvor yönalişi va mas'ul milliy idoraga biriktirib, ijrosini muntazam monitoring qilib boriş.

Muloqot va hurmatga tayangan hamkorlik

Osiyo bugun jahon iqtisodiyotining ösiş markazi, ayni paytda eng murakkab ziddiyatlar kesişadigan mintaqa hamdir. Bunday şaroitda özaro işonç savdo yölaklari, investitsiyalar va barqarorlikning asosiy şartiga aylanmoqda. OHIÇKning 34 yillik tajribasi şuni körsatadiki, muloqot va ixtiyoriy işonç çoralari uzoq muddatli natija beradi.

Özbekiston bu maydonda öz örnini topdi. Asosçi a'zodan faol taşabbuskorga, taşabbuskordan esa kun tartibini şakllantiruvçi koordinatorga aylandi. Afğoniston böyiça taşabbusning BMT Xavfsizlik Kengaşigaça yetib borişi, Samarqanddagi oziq-ovqat xavfsizligi konferensiyasi, Yoşlar kengaşining Samarqand yiğilişi, Termiz muloqotining OHIÇK bilan hamkorlikda ötkazilişi buning amaliy isbotidir. Boku sammitida ilgari surilgan "işonç infratuzilmasi" ğoyasi esa bu tajribani yangi, konseptual bosqiçga olib çiqadi. Savdo statistikasi ham Kengaş mamlakatlari Özbekiston iqtisodiyoti uçun hal qiluvçi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Endi navbatdagi vazifa erişilgan işonçni barqaror institutlarga aylantirişdir. OHIÇK transformatsiyasi jarayonida qabul qilinadigan Ustav, yangi tuzilmalar va mexanizmlar kelgusi ön yilliklar davomida Osiyodagi hamkorlik qoidalarini belgilaydi. Bu qoidalar şakllanayotgan paytda muzokaralar jarayonida faol böliş, iqtisodiy, texnologik va ekologik yönalişlarda mas'uliyatni öz zimmasiga oliş hamda parlament diplomatiyasi imkoniyatlarini işga soliş Özbekistonning uzoq muddatli manfaatlariga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Ostona sammitida zamonaviy tahdidlarni faqat muloqot, özaro manfaatlarni hisobga oliş va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga amal qiliş orqali samarali yengib ötiş mumkinligini ta'kidlagan edi. Boku sammitida bu yondaşuv "işonç infratuzilmasi" konsepsiyasi va uni amalga oşiriş böyiça aniq taşabbuslar şaklida yanada amaliy mazmun kasb etdi. Kelgusi yili Özbekiston Qöşilmaslik harakatining yigirmançi sammitiga mezbonlik qilişi esa mamlakatimizning köp tomonlama diplomatiyadagi mas'uliyati yanada ortib borayotganini körsatadi. Işonç diplomatiyasi Yangi Özbekiston taşqi siyosatining ajralmas qismiga aylanganini Osiyo hamjamiyati tobora kengroq e'tirof etmoqda.

Akrom TOŞPÖLATOV,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori.

26-oktyabrdan boşlab «Uzbekistan Airways» aksiyadorlik jamiyati Toşkent va Islomobod şaharlari örtasida qöşimça muntazam aviaqatnovlarni yölga qöyadi.

Xalq sözi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz bichimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab oliş uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilişi uchun obunani rasmiylaştirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilişiga "Sharq" naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent şahri,
Islom Karimov köchasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Ç. Marçabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon köchasi, 41. ÖzA yakuni – 05.00 Topşirildi – 05.10 1 2 3 4 5 6